

ALISHER NAVOIYNING “LISONU-T-TAYR” ASARINING ZAMONAVIY
MA’NAVIY-MA’RIFIY JARAYONLAR VA KOMIL INSON KONSEPSIYASINI
SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ro‘ziboyeva Hulkaroy Ravshanbek qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti, Islomshunoslik yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Tel: (+998) 94-114-01-07 Email: roziboyevahulkaroy04@gmail.com

Ilmiy rahbar: A‘zamxon Qambarov

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish

ICESCO” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lisonu-t-tayr” asarining zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar, pedagogik va psixologik qarashlar hamda komil inson konsepsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarning tasavvufiy-falsafiy mohiyati, inson tarbiyasi va ruhiy kamolotga oid g‘oyalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Xususan, asarda ilgari surilgan sabr, tavoze’, saxovat, vafodorlik, nafsni poklash, o‘zini anglash va ma’rifatga intilish kabi fazilatlarining shaxs psixologiyasi hamda tarbiyaviy jarayonlardagi o‘rni ochib beriladi. Qushlar obrazi orqali insonning ichki ruhiy kechinmalari, ma’naviy izlanishlari va komillikka erishish bosqichlari psixologik jihatdan talqin qilinadi. Shuningdek, asarda murshid va solik munosabatlari mi solida ustoz-shogird an‘analari, tarbiya metodlari va axloqiy yetuklikka erishishning pedagogik tamoyillari tahlil etiladi. Maqolada “Lisonu-t-tayr” nafaqat mumtoz adabiy va tasavvufiy meros namunasi, balki yosh avlodni ma’naviy barkamol, ruhiy barqaror va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik-manaviy manba ekani asoslab beriladi. Shu jihatdan asar zamonaviy pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan ham komil inson tarbiyasining muhim konseptual asoslaridan biri sifatida baholanadi.*

Tayanch so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Lisonu-t-tayr”, komil inson, pedagogika, psixologiya, tasavvuf, ma’naviyat, ma’rifat, axloqiy tarbiya, ruhiy kamolot, inson psixologiyasi, ma’naviy tarbiya, ustoz-shogird an‘anasi, badiiy tafakkur, mumtoz adabiyot, insonparvarlik.*

Alisher Navoiyning “Lisonu-t-tayr” dostoni Sharq mumtoz adabiyotining eng yuksak tasavvufiy-falsafiy yodgorliklaridan biri bo‘lib, u inson ruhiy kamoloti, ma’naviy poklanish va ilohiy haqiqatga yetishish g‘oyalarini badiiy-ramziy shaklda ifodalagan murakkab

konseptual tizimdir¹⁹⁴. Ushbu asar Fariduddin Attorning “Mantiq-t-tayr” asarida shakllangan g‘oyaviy asoslarni yangi estetik va psixologik bosqichga ko‘taradi¹⁹⁵.

Mazkur asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda inson faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ichki ruhiy jarayonlar, nafs bilan kurash va ongosti ziddiyatlari orqali shakllanuvchi murakkab tizim sifatida tasvirlanadi. Shu sababli, “Lisonu-t-tayr”ni nafaqat adabiy asar, balki psixologik va antropologik model sifatida ham o‘rganish mumkin. Xususan, asardagi qushlar obrazi inson shaxsiyatidagi turli psixologik holatlar - qo‘rquv, shubha, ishonchsizlik va turlicha intilishlarni ifodalaydi. Filologiya fanlari doktori, professor Alibek Rustamov ta’kidlaganidek, Navoiy qushlar tili orqali inson ruhining turli qirralarini yoritishda badiiy ramzlardan mahorat bilan foydalangan¹⁹⁶.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda asar kognitiv va ekzistensial psixologiya nuqtai nazaridan ham tahlil qilinmoqda. Qushlarning Simurg‘ sari safar qilishi bu insonning o‘zligini izlashi, hayot mazmunini anglashga bo‘lgan ekzistensial ehtiyojining ramzidir. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul qayd etganidek, “Navoiyning qushi bu insonning ruhi, uning Simurg‘ sari intilishi esa nafs kishanlaridan ozod bo‘lish jarayonidir”¹⁹⁷.

Asarning markaziy g‘oyasi bo‘lgan “Komil inson” konsepsiyasi zamonaviy gumanistik psixologiyadagi shaxsning o‘zini o‘zi aktuallashtirishi tushunchasi bilan hamohangdir. Komil inson g‘oyasi faqat diniy ideal emas, balki inson ruhiy evolyutsiyasining eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi¹⁹⁸. Bu jarayonda inson o‘z nafsini nazorat qilish va ichki uyg‘unlikka erishish orqali mukammallikka intiladi. Najmiddin Komilov ta’riflaganidek, bu ma’naviy sayohat insonni o‘z-o‘zini tahlil qilish va botiniy olamini isloh etishga undaydi¹⁹⁹.

“Lisonu-t-tayr”da ilgari surilgan g‘oyalar insonning ichki kamoloti, axloqiy poklanishi hamda o‘zini anglash jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jihat uni bugungi ta’lim-tarbiya tizimi va ma’naviy rivojlanish konsepsiyalari uchun ham dolzarb manbaga aylantiradi²⁰⁰.

Asarda markaziy o‘rinni egallagan “komil inson” g‘oyasi inson shaxsining faqat tashqi bilim va ijtimoiy faollik orqali emas, balki ichki ruhiy muvozanat, nafsni tarbiyalash va ma’naviy yetuklikka erishish orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, “Lisonu-t-tayr”dagi ramziy sayohat modeli zamonaviy ma’rifiy jarayonlarda shaxsni har tomonlama rivojlantirish konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Chunki asarda har bir qushning safardan

¹⁹⁴ Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. J. 12. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 8-12.

¹⁹⁵ O‘sha asar B 235

¹⁹⁶ Rustamov, A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 154-156.

¹⁹⁷ Haqqulov, I. Navoiyga qaytish. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 144.

¹⁹⁸ Sultonov, I. Alisher Navoiy: qomusiy asar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2011. – B. 182.

¹⁹⁹ Komilov, N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – B. 194.

²⁰⁰ Sultonov, I. Alisher Navoiy: qomusiy asar. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 188.

qaytishi yoki yo‘lda qolishi uning ichki tayyorgarligi, irodasi va ma‘naviy darajasiga bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu holat zamonaviy ijtimoiy psixologiyada shaxsning muhitga moslashuvi va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Asarda aks etgan yana bir muhim g‘oya bu ma‘naviy tanlov erkinligidir. Qushlar Simurg‘ sari yo‘lga chiqish yoki chiqmaslikni o‘z ixtiyorlari bilan hal qiladilar. Bu esa insonning ma‘naviy mas‘uliyati va irodaviy qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ham shaxsning mustaqil fikrlashi va tanlov qilish kompetensiyasini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida qaraladi²⁰¹.

Bundan tashqari, asarda vaqt tushunchasi ham ramziy ma‘noga ega bo‘lib, u ma‘naviy jarayonning ichki ritmini ifodalaydi. Qushlarning uzoq va mashaqqatli yo‘li inson kamolotining tez emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Bu hozirgi davrdagi yoshlarni sabr orqali maqsadga erishishi va maqsadga tez emas, balki maqsad yo‘lidagi mashaqqatlarga chidagan holda bosqichma-bosqich erishishini ifodalab beradi. Bu jihat rivojlanish psixologiyasidagi “progressive maturation” konsepsiyasi bilan mazmunan uyg‘unlashadi²⁰².

“Lisonu-t-tayr” asarida inson motivatsiyasi masalasi chuqur falsafiy va psixologik asosda yoritilgan bo‘lib, unda harakatlantiruvchi kuch sifatida ichki va tashqi omillar uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Qushlarni safarga undagan asosiy omil Hudhudning da‘vati va Simurg‘ haqidagi ideal tasavvurdir. Ya‘ni yosh avlodning maqsadga erishgandan so‘ng o‘zini qay holda ko‘rish nazariyasi bunda mavjuddir. Bu insonga motivatsiya ya‘ni ichki jo‘shqinlik hissini beradi. Bunda inson yo‘ldagi to‘siqlarga qaramay natija uchun harakat qilishni davom ettiradi. Bu holat zamonaviy psixologiyada “intrinsic motivation” ya‘ni ichki rag‘bat tushunchasi bilan mos keladi. Ichki motivatsiya insonning o‘z maqsadi, qiziqishi va e‘tiqodi asosida harakat qilishini bildiradi. Navoiy bu g‘oyani badiiy obrazlar orqali ifodalab, insonni tashqi majburlashsiz, ichki anglash orqali kamolot sari undaydi²⁰³.

Asarda maqsadga yo‘naltirilganlik masalasi ham aniq yoritilgan. Qushlar oldiga qo‘yilgan aniq maqsad Simurg‘ni topish, inson hayotida maqsadning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy motivatsion nazariyalarga ko‘ra, aniq va mazmunli maqsad inson faoliyatining samaradorligini oshiradi²⁰⁴.

Asarda insonning ruhiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar ham aniq ko‘rsatib berilgan. Jumladan, nafsga berilish, moddiy manfaatlarga ortiqcha bog‘lanish va ma‘naviy loqaydlik inson taraqqiyotining asosiy psixologik to‘siqlari sifatida talqin qilinadi. Bu

²⁰¹ Yusupova, D. O‘zbek adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. – B. 156.

²⁰² Erikson, E. H. Identity and the Life Cycle. – New York: International Universities Press, 1959. – P. 112-115.

²⁰³ Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. J. 12. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 215.

²⁰⁴ Locke, E. A., Latham, G. P. A Theory of Goal Setting & Task Performance. – New Jersey: Prentice Hall, 1990. – P. 112.

qarashlar zamonaviy psixologiyada “self-regulation failure” va “hedonic adaptation” kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashadi²⁰⁵. Ya’ni inson o‘z nafsini boshqara olmasa, u uzoq muddatli maqsadlarga erisha olmaydi.

Simurg‘ obrazi asarda mutlaq haqiqat va komillik timsoli sifatida talqin qilinadi. Qushlarning o‘zlarini Simurg‘da ko‘rishlari bu insonning haqiqatni tashqi dunyodan emas, balki o‘z ichki mohiyatidan topishini anglatadi. Ushbu g‘oya tasavvufdagi “vahdat ul-vujud” konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda borliqning yagona manbaga egaligi ilgari suriladi. Shu bilan birga, bu yondashuv zamonaviy fenomenologiyada ham aks etib, haqiqat inson ongining idroki orqali anglanishini ta’kidlaydi²⁰⁶.

Asarda qo‘rquv va shubha inson kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy psixologik omillar sifatida ko‘rsatilgan. Har bir qushning safardan bosh tortishi - bu inson ongidagi ichki konfliktlarning badiiy ifodasidir. Zamonaviy psixoterapiyada bu holat “internal resistance” yoki “self-sabotage” sifatida izohlanadi²⁰⁷. Bundan tushunishimiz mumkinki asar insonni o‘z ichki to‘siqlarini anglash va yengishga undaydi.

Bundan tashqari, asarda sabr va qat’iyat g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Qushlarning uzoq va mashaqqatli yo‘li inson hayotidagi sinovlar ramzi sifatida talqin qilinadi. Psixologiyada bu jarayon “resilience” ya’ni qiyinchiliklarga bardoshlilik tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, insonning muvaffaqiyatga erishishida muhim omil hisoblanadi²⁰⁸.

“Lisonu-t-tayr” asarida insonning o‘zini anglash jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab psixologik tizim sifatida talqin qilinadi. Qushlarning yetti vodiyan o‘tishi inson ruhiy taraqqiyotining muayyan bosqichlarini ifodalaydi. Bu bosqichlarni zamonaviy rivojlanish psixologiyasidagi bosqichli rivojlanish nazariyalari bilan qiyoslash mumkin. Xususan, J. Piaget nazariyasiga ko‘ra, inson tafakkuri oddiy sezgi-harakat bosqichidan abstrakt fikrlash darajasiga qadar evolyutsion tarzda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qushlarning har bir vodiyan o‘tishi bu inson tafakkurining yangi darajaga ko‘tarilishidir²⁰⁹.

Asarda muhim o‘rin egallagan tushunchalardan yana biri “muhabbat” vodiysidir. Bu bosqichda inson ratsional fikrlashdan ko‘ra hissiy va intuitiv idrokka tayanadi. Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, inson qaror qabul qilish jarayonida

²⁰⁵ Baumeister, R. F., Heatherton, T. F., Tice, D. M. *Losing Control: How and Why People Fail at Self-Regulation*. – Academic Press, 1994. – P. 45-48.

²⁰⁶ Husserl, E. *Cartesian Meditations: An Introduction to Phenomenology*. – The Hague: Martinus Nijhoff, 1960. – P. 82-84.

²⁰⁷ Freud, S. *The Ego and the Id*. – London: Hogarth Press, 1923. – P. 34-38.

²⁰⁸ Masten, A. S. *Ordinary Magic: Resilience Processes in Development // American Psychologist*. – 2001. – №56(3). – P. 227-238.

²⁰⁹ Piaget, J. *The Psychology of Intelligence*. – New York: Routledge, 1950. – P. 112-115.

nafaqat mantiqiy, balki emotsional omillar ham muhim rol o‘ynaydi²¹⁰. Demak, Navoiy asarida ilgari surilgan g‘oyalar inson psixikasining real mexanizmlari bilan uyg‘unlashadi²¹¹.

Shuningdek, “ma’rifat” vodiysi bilimning chuqurlashuvi va tafakkurning kengayishini anglatadi. Bu bosqich zamonaviy ta’lim nazariyasida “metakognitsiya” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, insonning o‘z fikrlash jarayonini anglash va nazorat qilish qobiliyatini bildiradi. Qushlarning o‘z xatolarini anglab borishi aynan shu jarayonning badiiy ifodasidir²¹².

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, “Lisonu-t-tayr” asari reflektiv o‘qitish metodlari uchun juda muhim manba hisoblanadi. Chunki undagi har bir voqea o‘quvchini o‘z fikrini tahlil qilishga, xulosa chiqarishga undaydi. Zamonaviy pedagogikada refleksiya o‘quv jarayonining muhim komponenti sifatida qaraladi²¹³.

Bundan tashqari, asarda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ham chuqur yoritilgan. Qushlarning jamoaviy harakati “kollektiv ong” tushunchasini eslatadi. Bu tushuncha C. Jung tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, unda insoniyat umumiy psixologik tajribaga ega ekani ta’kidlanadi²¹⁴. Qushlarning bir maqsad sari harakat qilishi aynan shu kollektiv birlikni ifodalaydi.

Asarda uchraydigan ichki konfliktlar zamonaviy psixoanalitik nazariyalar bilan hamohangdir. Z. Freyd nazariyasiga ko‘ra, inson ongida “id”, “ego” va “superego” o‘rtasida doimiy kurash mavjud. Qushlarning turli bahonalar bilan ortga qaytishi bu inson ichki “id” va “superego” o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi²¹⁵.

Bundan tashqari, asarda stress va uni yengish masalasi ham badiiy tarzda yoritilgan. Qushlarning safar davomida duch kelgan qiyinchiliklari zamonaviy psixologiyada “coping strategies” tushunchasi bilan bog‘liq. Inson qiyinchiliklarga duch kelganda turli strategiyalar orqali ularni yengishga harakat qiladi.

Asarda psixologik tahlildan tashqari pedagogik ahamiyati ham ayniqsa muhimdir. Qushlarning jamoa bo‘lib harakat qilishi ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan mos tushadi. Bu nazariyaga ko‘ra, insonlar o‘zaro ta’sir orqali o‘rganadilar va rivojlanadilar. Hudhud obrazi esa zamonaviy pedagogikadagi “lider–murabbiy” modeliga yaqin bo‘lib, u nafaqat yo‘l ko‘rsatadi, balki shaxsning ichki o‘shiga ham ta’sir qiladi²¹⁶.

²¹⁰Damasio, A. Descartes' Error: Emotion, Reason, and the Human Brain. – New York: Putnam, 1994. – P. 172.

²¹¹ Rustamov, A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 168.

²¹² Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – №34(10). – P. 906-911.

²¹³ Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – №34(10). – P. 906-911.

²¹⁴Jung, C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton University Press, 1981. – P. 158.

²¹⁵ Freud, S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923. – P. 28-32.

²¹⁶ Bandura, A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977. – P. 116-120.

Zamonaviy pedagogikada “shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. “Lisonu-t-tayr” asarida esa har bir qush individual xususiyatga ega bo‘lib, bu shaxsiy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa asarni zamonaviy ta‘lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, asarda axloqiy tarbiya masalasi ham chuqur yoritilgan. Halollik, sabr, sadoqat kabi fazilatlar komil insonning asosiy belgilaridir. Bu fazilatlar zamonaviy pedagogikada “moral education” tushunchasi bilan ifodalanadi²¹⁷.

Falsafiy jihatdan qaraganda, “Lisonu-t-tayr” asari insonning o‘zini anglash jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon Karl Yung nazariyasidagi “individuatsiya” tushunchasiga yaqin bo‘lib, insonning o‘z “men”ini anglash va ichki yaxlitlikka erishishini bildiradi. Qushlarning turli vodiylardan o‘tishi esa inson ruhiy rivojlanishining bosqichlarini ifodalaydi. Shuningdek, asarda ijtimoiy birdamlik va hamkorlik g‘oyalari ham ilgari surilgan. Qushlarning jamoaviy harakati zamonaviy sotsiologiyada “ijtimoiy kapital” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi²¹⁸.

Asarning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati shundaki, u yoshlarni ma‘naviy tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda inson ongiga turli salbiy ta‘sirilar kirib kelmoqda. “Lisonu-t-tayr” esa yoshlarni mustaqil fikrlashga, o‘z qadriyatlarini anglashga o‘rgatadi.

Madaniy-ma‘rifiy jihatdan qaraganda, “Lisonu-t-tayr” asari milliy o‘zlikni anglashda muhim manba hisoblanadi. U o‘zbek xalqining boy ma‘naviy merosini, tasavvufiy tafakkur an‘analarini o‘zida mujassam etgan. Asarni o‘rganish orqali yosh avlod o‘z tarixini, madaniyatini va ma‘naviy ildizlarini chuqurroq anglaydi. Bu esa milliy identitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi²¹⁹.

Shuningdek, asarning zamonaviy madaniy hayotdagi o‘rni ham kengayib bormoqda. Bugungi kunda adabiyot, teatr, kino va san‘atning turli yo‘nalishlarida “Lisonu-t-tayr” motivlaridan foydalanilmoqda. Bu esa asarning universal g‘oyalarini zamonaviy shakllarda talqin qilish imkonini beradi va uni yangi avlod ongiga yaqinlashtiradi.

Asarning yana bir muhim jihati uning ma‘naviy immunitetni shakllantirishdagi roli bilan bog‘liq. Hozirgi davrda yoshlar turli g‘oyaviy tahdidlarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda “Lisonu-t-tayr” asaridagi g‘oyalar o‘zini anglash, haqiqatni izlash, ma‘naviy poklanish insonni turli salbiy ta‘siirlardan himoya qiluvchi ichki tayanch vazifasini bajaradi²²⁰.

²¹⁷Lickona, T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991. – P. 54-58.

²¹⁸Putnam, R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – P. 19-21

²¹⁹Yusupova, D. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – B. 98.

²²⁰Karimov, I. A. Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 112-115.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda ushbu asardan foydalanishning samarali usullaridan yana biri integrativ yondashuvdir. Ya’ni uni nafaqat adabiyot darslarida, balki psixologiya, falsafa va tarbiya fanlari bilan bog‘liq holda o‘rganish samaralidir²²¹. Bu esa o‘quvchilarda kompleks bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, asarning hayotga tatbiqi shaxsiy rivojlanish darajasida ham namoyon bo‘ladi. Inson “Lisonu-t-tayr”ni o‘qish orqali o‘z hayotini tahlil qiladi, o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va ichki imkoniyatlarini anglay boshlaydi. Bu esa shaxsning o‘z ustida ishlashiga, o‘zini rivojlantirishga undaydi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, “Lisonu-t-tayr” asari nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan noyob ma’naviy-falsafiy manbadir. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar motivatsiya, o‘zini anglash, sabr, maqsadga intilish, axloqiy poklanish, zamonaviy psixologiya va pedagogika bilan uzviy bog‘lanadi.

Ayniqsa, asarning hozirgi davrda hayotga tatbiqi uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni bilan belgilanadi. U shaxsni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan “Lisonu-t-tayr” asari zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida keng qo‘llanishi lozim bo‘lgan muhim didaktik va ma’naviy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Dilorom Yusupova. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – 224 b.
3. Saida G‘aniyeva. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 512 b.
4. Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1996. – 346 b.
5. Abduqodir Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – 216 b.
6. Ibrohim Haqqulov. Navoiyga qaytish. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2007. – 280 b.
7. Ibrohim Sulonov. Alisher Navoiy: qomusiy asar. – Toshkent: Fan, 2011. – 384 b.
8. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – 320 b.

²²¹ G‘aniyeva, S. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 2-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – B. 248.

9. Erik Erikson. Identity and the Life Cycle. – New York: International Universities Press, 1959. – 192 p.
10. Edwin Locke., Gary Latham. A Theory of Goal Setting & Task Performance. – New Jersey: Prentice Hall, 1990. – 413 p.
11. Roy Baumeister., Todd Heatherton., Dianne Tice. Losing Control: How and Why People Fail at Self-Regulation. – Academic Press, 1994. – 307 p.
12. Edmund Husserl. Cartesian Meditations: An Introduction to Phenomenology. – The Hague: Martinus Nijhoff, 1960. – 157 p.
13. Sigmund Freud. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923. – 89 p.
14. Ann Masten. “Ordinary Magic: Resilience Processes in Development” // American Psychologist. – 2001. – №56(3). – P. 227–238.
15. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. – New York: Routledge, 1950. – 210 p.
16. Antonio Damasio. Descartes' Error: Emotion, Reason, and the Human Brain. – New York: Putnam, 1994. – 312 p.
17. John Flavell. “Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry” // American Psychologist. – 1979. – №34(10). – P. 906–911.
18. Carl Gustav Jung. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton University Press, 1981. – 470 p.
19. Albert Bandura. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977. – 247 p.
20. Thomas Lickona. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. – New York: Bantam Books, 1991. – 478 p.
21. Robert Putnam. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – 541 p.